

O'ZINI O'ZI O'LDIRISHGA UNDASH JINOYATI VA UNI TERGOV QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

O'ktamov Abubakir Maxamatsidiq o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati"
mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

E-mail: Abubakir.oktamov@mail.ru; Phone: +99833 337-77-70.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11553351>

Annotatsiya. Maqolada o'zini-o'zi o'ldirishga undash jinoyati va uni tergov qilishning nazariy asoslari misollar orqali tahlil qilingan. Tahlillar asosida ushbu jinoyatni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, jinoyat, jazo, jazoni yengillashtiruvchi holatlar, huquqni muhofaza qilish organlari, tergov faoliyati, o'zini-o'zi o'ldirishga undash.

THE CRIME OF SUICIDE AND THEORETICAL BASIS OF ITS INVESTIGATION

Abstract. The article analyzes the crime of incitement to suicide and the theoretical basis of its investigation through examples. Proposals for further improvement of this crime have been developed based on the analysis.

Key words: Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, crime, punishment, mitigating circumstances, law enforcement agencies, investigative activities, incitement to suicide.

ПРЕСТУПЛЕНИЕ САМОУИЦИДА И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЕГО РАССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В статье на примерах анализируется преступление доведения до самоубийства и теоретические основы его расследования. На основе анализа разработаны предложения по дальнейшему совершенствованию данного преступления.

Ключевые слова: Уголовный кодекс Республики Узбекистан, преступление, наказание, смягчающие обстоятельства, правоохранительные органы, следственные действия, доведение до самоубийства.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda jinoyatlarni ochish, tergov qilish, ularning oldini olish, shu orqali fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ma'lumki, mazkur vazifani bajarish huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga yuklatilgan. Bu borada, ayniqsa prokuratura, ichki ishlar hamda boshqa idoralar xodimlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklangan bo'lib, ular yuqorida qayd etilgan ishlarni amalga oshirishda salmoqli vazifalarni amalga oshiradilar.

Qayd etish lozimki, bugungi kunda har bir insonning yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlarini kafolatli ta'minlash, biron-bir shaxsni qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor etilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ko'rib borilmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi o'z joniga qasd qilish holatlari ko'payganligi natijasida mazkur harakatlarda o'zini o'zi o'ldirishga undash jinoyati alomatlari mavjudligini aniqlash hamda ularni samarali tergov qilish bilan bog'liq.

Bundan tashqari, inson hayotini o'z joniga qasd qilishga undaydigan harakatlardan jinoiy-huquqiy himoya qilishning mavjud vositalarini takomillashtirish va yangi vositalarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilandi.

Fuqarolarning o'z joniga qasd qilish holatlari to'g'risida so'z yuritganda, yuridik adabiyotlarda, xalqaro uchrashuvlarda, ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog'ida "suitsid" atamasiga duch kelamiz.

Suitsid (lot. "sui" – o'zini, "caedo" – o'ldirish, yo 'qotish degan so'zlaridan olingan) – shaxsning muayyan biologik, ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy-axloqiy holati oqibatida o'zini o'zi hayotdan mahrum etishga qaratilgan harakatidir.

Bugungi kunda shaxsni o'zini o'zi o'ldirishga undash hamda suitsid darajasiga yetkazish ijtimoiy xavfli jinoyat sifatida baholanib, unga nisbatan barcha Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning Jinoyat kodekslarida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Xususan, shaxsga qarshi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limida, shu bo'limning birinchi bobida esa hayotga qarshi qaratilgan jinoyatlar sifatida o'z aksini topgan.

Mazkur guruhga kiruvchi qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limiga joylashtirilishi Respublikamizda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish asosida olib borilayotgan qoidalarga, ya'ni aynan shaxsning hayoti, sog'lig'i, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini oliy qadriyat sifatida himoya qilish va shaxs manfaatlarini himoya qilishning konseptual g'oyalaridan kelib chiqadi. Mazkur konsepsiyaning o'zi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deb mustahkamlangan qoidaga asoslangan.

Shundan kelib chiqqan holda shaxs manfaatlarini, ularning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining asosiy vazifalaridan biridir.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 103-moddasida o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va 103¹-moddasida o'zini o'zi o'ldirishga undaganlik uchun javobgarlik belgilanib, JKning 103-moddasi matni O'zbekiston Respublikasining 13.06.2017-yildagi O'RQ-436-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda berildi hamda 103¹-modda bilan to'ldirilgan.

Bu borada xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganida bir qator davlatlarda, ya'ni Belarus Respublikasi JKning 146-moddasida, Armaniston JKning 111-moddasida, Qirg'iziston JKning 106-moddasida va Turkmaniston JKning 103-moddasida o'z joniga qasd yoki sui-qasd qilishga undash jinoyatlari uchun javobgarlik belgilanganligini ko'rishimiz mumkin.

Shaxsning Jinoyat kodeksining 103¹-moddasida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etganlikda ayblilik masalasini hal qilishda, sodir etilgan qilmishdagi jinoyat tarkibini batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiq.

"Jinoyat huquqi" fanida jinoyat tarkibining tahlilini jinoyat obyektini aniqlashdan boshlash odat tusini olgan. Bunda jinoyat obyektini aniqlash muammosi oddiygina yo'l bilan hal qilingan. Jinoyat huquqida qabul qilingan an'anaga binoan, agar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 103¹-moddasi JK Maxsus qismining "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan birinchi

bo‘limiga, “Hayotga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan birinchi bobga kiritilgan, moddaning dispozitsiyasida inson hayotiga tajovuz qilish nazarda tutilgan bo‘lsa, umumiy va bevosita obyektlar farqlanishidan kelib chiqqanda, bu yerda qilmishning umumiy obyekti sifatida-shaxs, maxsus obyekt sifatida – umuman inson hayoti, bevosita obyekt sifatida esa – muayyan odamning hayoti amal qiladi. Ammo bu jinoyat huquqi nazariyasida ijtimoiy munosabatlar amal qiladi, degan fikrga mos kelmaydi¹.

Shunday qilib, o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash **jinoyatining obyekti** inson hayotidir. Inson hayotiga qarshi qaratilgan bu jinoyat qonunchilikda juda jiddiy qaraladi, chunki u insonning eng muhim huquqi bo‘lmish yashash huquqini buzishga qaratilgan. Shuning uchun, bu jinoyatning asosiy obyekti insonning hayot haqidagi o‘z xohish-irodasi, uning ruhiy va psixologik holatidir.

Jinoyat kodeksida bunday harakatlarning javobgarligi aniq belgilangan bo‘lib, unga undash, qo‘rqitish, tahdid qilish yoki boshqa turdagi ta’sir ko‘rsatish orqali insonni o‘z joniga qasd qilishga majbur qilish harakatlari kiritilgan.

O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash jinoyati bo‘yicha olimlar fikrlari turli jihatlardan ko‘rib chiqilgan. Quyida ayrim mutaxassislar fikrlarini keltirib o‘tamiz:

Emil Dyurgeym o‘zining “O‘z joniga qasd qilish” (Le Suicide) asarida o‘zini o‘zi o‘ldirishning ijtimoiy sabablarini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, o‘zini o‘zi o‘ldirish ijtimoiy muhitning ta’siri natijasida yuzaga keladi va u turli ijtimoiy omillar, jumladan, jamiyatdagi izolyatsiya, normalarning buzilishi va ijtimoiy tarmoqlarsizlik bilan bog‘liqdir².

Tomas Joyner o‘zining “Why People Die by Suicide” asarida u o‘zini o‘zi o‘ldirishga olib keluvchi psixologik va biologik omillarni o‘rganadi. Uning “Interpersonal – psychological theory of suicidal behavior” nazariyasiga ko‘ra, insonni o‘z joniga qasd qilishga undaydigan ikki asosiy omil mavjud: ijtimoiy bog‘lanishning yetishmasligi va o‘zini og‘irlik sifatida his qilish.

Devid Laster ko‘plab asarlarida o‘zini o‘zi o‘ldirishning psixopatologiyasi, ijtimoiy va psixologik sabablarini o‘rganadi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, psixik kasalliklar, stress va ijtimoiy qiyinchiliklar o‘zini o‘zi o‘ldirishga undashga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi olimlarning fikrlari va tadqiqotlari ushbu murakkab jinoyatning turli jihatlarini yoritib, uni tushunish va oldini olishga yordam beradi.

O‘zini o‘zi o‘ldirishga undash **jinoyatining obyekti tomoni** – bu, jinoyatni amalga oshirish jarayonidagi harakatlar va holatlar majmuini o‘z ichiga oladi. Bu jinoyatning obyektiv tomoni quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Harakatlar yoki harakatsizlik. Bu o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash uchun qaratilgan turli harakatlar yoki harakatsizlik bo‘lishi mumkin. Bunda quyidagi turdagi harakatlar nazarda tutiladi:

- **Qo‘rqitish:** jablanuvchini o‘z joniga qasd qilishga majburlash uchun unga zo‘rlilik yoki zo‘ravonlik tahdid qilish.
- **Tahqirlash:** jabrlanuvchini tahqirlash, uning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, shu orqali uning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish.
- **Manipulyatsiya qilish:** jabrlanuvchini manipulyatsiya qilish, uning psixikasiga ta’sir ko‘rsatib, o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash.

¹ Таций В.Я. Объект и предмет преступления в уголовном праве. – Харьков, 1998. – С. 14-15.; Лопашенко Н.А. Вопросы квалификации преступлений в сфере экономической деятельности. – Саратов, 1997. – С.11.

² Дюркгейм Э. Самоубийства. Социологический этюд. – СПб., 1988.

• **Boshqa shakldagi bosim:** jabrlanuvchiga turli bosim o'tkazish, masalan, ijtimoiy yoki iqtisodiy bosim orqali uni o'z joniga qasd qilishga majburlash.

2. Sababiy bog'liqlik: Undash natijasida jabrlanuvchi o'zini o'zi o'ldirishi yoki o'zini o'zi o'ldirishga uringan bo'lishi kerak. Ya'ni, undash harakatlari bilan jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilish harakati o'rtasida sababiy bog'liqlik bo'lishi shart.

3. Jabrlanuvchining ruhiy holati: jabrlanuvchining ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatish, uning hayotga bo'lgan munosabatini o'zgartirish. Undash natijasida jabrlanuvchi ruhiy tushkunlikka tushib, o'zini o'zi o'ldirish qarorini qabul qilishga olib keladi.

Bu elementlar jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etadi va bu jinoyatni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, o'zini o'zi o'ldirishga undash jinoyatining obyektiv tomonini tushunish uchun ushbu harakatlar va ularning natijalariga e'tibor qaratish lozim.

Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra har qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonunda belgilangan yoshga yetgan va aqli raso jismoniy shaxslar jinoyatning subyeksi bo'ladi. Albatta, javobgarlikning asosi sifatida jinoyat tarkibining eng muhim elementi bu **jinoyat subyeksi** hisoblanadi.

Jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoyat subyeksi faqat jismoniy shaxs bo'la oladi va 17-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, o'zini o'zi o'ldirishga undash jinoyatining subyeksi, ya'ni jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar. Shaxsning qonunda belgilangan subyekt yoshiga yetganligidan tashqari u o'z harakatlarini boshqara olishi va harakati tufayli kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatni ham anglashi kerak bo'ladi. O'z harakatini idora qila olmaydigan va oqibatini anglamaydigan shaxslarning ijtimoiy xavfli qilmishi tufayli qonun bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazilsa, ularning harakatida qasd yoki ehtiyotsizlik shaklidagi ayb mavjud bo'lmaydi.

Bu haqida bir qator olimlar tomonidan fikr bildirib o'tilgan. Xususan, huquqshunos olim Lourens Koxan (Lawrence Cohen) va Markus Felson (Marcus Felson) larning nazariyasiga ko'ra, jinoyatlarning sodir bo'lishi uchun uchta asosiy omil mavjud: ishtiyoqqa ega jinoyatchi, munosib qurbon va nazoratsiz muhit. Bu nazariyani suitsidga undash jinoyatiga ham tatbiq etish mumkin. Ularning fikricha, suitsidga undash jinoyatini tergov qilishda ushbu uch omilni o'rganish zarur: undash qilgan shaxsning ishtiyoqi, qurbonning zaifligi va jinoyat sodir etilgan muhit.

Frenk Xagan (Frank E. Hagan)ning kriminologiya bo'yicha tadqiqotlari jinoyatlarning ijtimoiy va iqtisodiy omillarini tahlil qilishga qaratilgan. Uning fikricha, ijtimoiy adolatsizlik, ishsizlik va ijtimoiy izolyatsiya suitsidga undash jinoyatlarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Xagan ushbu jinoyatlarga qarshi kurashda ijtimoiy dasturlarning ahamiyatini ta'kidlaydi va tergovchilarni jinoyatni sodir etgan shaxslarning ijtimoiy holatini o'rganishga chaqiradi.

O'zini o'zi o'ldirishga undash jinoyatining **subyektiv tomoni** jinoyat sodir etuvchi shaxsning ichki ruhiy holati va niyatini ifodalaydi. Bu jinoyatning subyektiv tomoniga quyidagilar kiradi:

Qasd: Bu jinoyatning subyektiv tomoni faqat qasddan sodir etiladi. Qasd ikki turga bo'linadi: To'g'ri qasd, jinoyatchi o'z harakatlari orqali jabrlanuvchini o'zini o'zi o'ldirishga undashni va bunga erishishni xohlaydi. Egri qasd, jinoyatchi o'z harakatlari jabrlanuvchini o'zini o'zi o'ldirishni undaydiganligini biladi, lekin bunga aniq maqsad qilmagan bo'lsa ham, uning oqibatlarini ko'ra oladi va bu oqibatlarining kelib chiqishiga yo'l qo'yadi.

Bundan tashqari, jinoyatchi o'z harakatlarining oqibatlarini bilib, uni maqsad qiladi yoki qabul qiladi. Masalan, jinoyatchi jabrlanuvchini o'zini o'zi o'ldirishga majbur qilish yoki unga psixologik bosim o'tkazib, uning hayotiga zomin bo'lishni maqsad qilgan bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonning hayoti va sog'lig'i shaxsning bebaho boyligi hisoblanib, uning bu boyligidan mahrum etilishi yoki shikast yetkazilishi og'ir jinoyat hisoblanadi.

Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi, shuningdek shaxsga qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasining yuqoriligi, ularning sodir etilishi natijasida hayot va sog'liq, jinsiy erkinlik, oila va yoshlarning manfaatlari, axloq normalari, shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga jiddiy zarar yetkazilishi bilan ham shartlanadi.

Shulardan kelib chiqib, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish, o'zini o'zi o'ldirishga undash jinoyatlari bilan bir qatorda shaxsga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlardan biri bo'lgan qasddan odam o'ldirish, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, qiynash, odam o'g'irlash, odam savdosi, nomusga tegish kabi jinoyatlardan jabrlanishning oldini olish, ularga yetkazilgan ma'naviy, moddiy zararlarning qoplanishiga doir huquqiy mexanizm yaratilishi va ushbu jinoyatlar viktimologik profilaktikasining samaradorligini oshirish, milliy qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning yechimini topishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, shaxsni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazadigan darajada qonunga xilof harakatlar sodir etilganligi natijasi bilan birga, boshqa bir qator omillar, jumladan, shaxs sog'lig'i va ruhiy holati, u tug'ilib o'sgan muhit, undagi sharoit, oila va jamoadagi axloqiy-ma'naviy qarashlar, hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivoji va boshqa ta'sirlar ham sabab bo'ladi.

Umuman olganda, o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq har bir holatda buning tub sababi va shart-sharoitlarini sinchkovlik bilan, to'la va har tomonlama aniqlamasdan turib, insonning hayotidan mahrum etilishi holatiga to'laqonli huquqiy baho berib bo'lmaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, T., 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr. – T., “Adolat” 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. (Maxsus qism) – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. – 2016.
4. Musayev M. O'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazishni tergov qilish. Toshkent. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – 2007.
5. Татсий В.Й. Объект и предмет преступления в уголовном праве. – Харьков, 1998. – С. 14-15.; Лопашенко Н.А. Вопросы квалификации преступлений сфере экономической деятельности. – Саратов, 1997. – С.11.
6. Дюркгейм Э. Самоубийства. Социологический этюд. – СПб., 1988.